



BANKLARDA MOLIVAVIY MENEJMENT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ilhomjonova Fotima Muxiddinovna

Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti

“Savdo ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi PhD

email:ilhomjonova_fotima@tfi.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15341960>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Aprel 2025 yil

Ma’qullandi: 28- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 30-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Moliyaviy menejment, banklar, risklarni boshqarish, moliyaviy rejalashtirish, texnologiyalar, innovatsiyalar, moliyaviy tahlil, samaradorlik, integratsiyalashgan yondashuv, kadrlar siyosati.

ABSTRACT

Mazkur maqolada banklarda moliyaviy menejment faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Moliyaviy menejmentning ahamiyati, uning samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar va metodlar ko'rib chiqiladi. Maqola banklar uchun moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning asosiy tamoyillari va innovatsiyalarni joriy etishning ahamiyatini yoritadi.

Bugungi kunda bank tizimlarining samarali ishlashini ta'minlash uchun moliyaviy menejmentni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada banklarda moliyaviy menejment faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari va metodlari tahlil qilinadi. Banklarda moliyaviy menejment tizimini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy-iqtisodiy globallashuv va jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobatbardosh investitsiyalarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Bundan shuni tushunish mumkinki rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi har bir korporativ kompaniyalar nafaqat milliy moliya bozoridan, balki xalqaro moliya bozorlaridan ham kapital jalb qilish orqali moliyaviy ta'minot masalasini hal qilishga va faoliyatini xalqaro darajada kengaytirishga intilmoqda. Mulkchilik shakllarining turli-tumanligi va ularning huquqiy jihatdan tengligi milliy iqtisodiyotda bozor munosabatlari qaror topishining eng muhim sharti hisoblanadi. Buning natijasida tobora keng ko'lamda faoliyat yuritayotgan korporativ tuzilmalarni samarali boshqarish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Moliyaviy menejmentning samarali tashkil etilishi banklar uchun nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki ularning raqobatbardoshligini oshirishga ham yordam beradi. Moliyaviy resurslarning samarali boshqarilishi banklarning qisqa va uzoq muddatli maqsadlariga erishish imkoniyatlarini oshiradi. Bu o'z navbatida banklarning foyda olishini ta'minlaydi, kredit resurslarining samarali taqsimlanishiga yordam beradi, va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni rag'batlantiradi. Hozirgi iqtisodiyotni moderizatsiyalash va integratsiyalash muhitida banklarda moliyaviy menejmentning o'rni juda muhim hisoblanadi. Moliyaviy menejment, banklardaning moliyaviy resurslarini nazorat qilish va ulardan to'g'ri

foydalanish bilan bog'liq vaziyatlarni tahlil etadi. Bunday menejment faoliyati, biznesni muvaffaqiyatga olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida moliyaviy menejment banklardaning moliyaviy resurslarni boshqarish, investitsiyalar va moliyaviy faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq bo'lib, bu sohada o'rganilgan faoliyat aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy maqsadlarga erishishini ta'minlash uchun muhimdir. Moliyaviy menejmentni o'rganish jarayonida, banklardaning moliyaviy resurslarni qanday boshqarish, investitsiyalar va kreditlarni qanday olish va qo'llash, moliyaviy hisob-kitoblarni qanday tuzish va hisoblash, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va boshqa moliyaviy jarayonlarni rivojlantirishga oid ko'plab ko'nikmalar o'rganilgan. Bu jarayonlar asosida banklardaning moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish, xavfsizligini ta'minlash va moliyaviy maqsadlarga erishish uchun kerakli moliyaviy menejmentni amalga oshirishlari rejalashtiriladi.

Tahlil va natijalar

Banklarda faoliyatida moliyaviy menejmentni o'rni va faoliyati o'rganishning muhim ahamiyati bor. Moliyaviy menejment, jamiyatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, pul mablag'larini to'g'ri yo'nalish, daromad va xarajatlarni nazorat qilish va kredit siyosatini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy menejmentni o'rganish, banklarda rahbariyati uchun juda muhimdir. Bu jarayon davomida, jamiyatning moliyaviy vazirligining barcha turlarini tahlil qilish, moliyaviy risklarni belgilash, daromad va xarajatlarni nazorat qilish, investitsiyalar va kreditlarni rivojlantirish va boshqarishning boshqa ko'nikmalarini o'rganish lozim. Moliyaviy menejmentning o'rni va faoliyati o'rganilganligi esa, jamiyatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda hamda banklardaning moliyaviy menejment tizimini zamonaviy modellar asosida rivojlantirishga yordam beradi. Bunday tizim jamiyatning moliyaviy natijalarini yaxshilash, daromadni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy risklarni kamaytirishga imkoniyat yaratadi. Bular bilan birga, banklarda moliyaviy menejmentni o'rnatish va uning faoliyatini o'rganish orqali jamiyatning moliyaviy natijalarini yaxshilash, daromadni oshirish va moliyaviy risklarni kamaytirishga erishadi.

Moliyaviy menejment keng qamrovli bo'lgan yo'nalishlarni o'z ichiga oladi, masalan:

Budjet tuzish - moliyaviy menejerlar, banklardaning umumiy budjetini ishlab chiqish va jalb etishda rol o'ynaydi. Bu jarayonda, moliyaviy resurslarning qanday rivojlangan, qanday sarflangan va qanday o'lchashlar bilan nazorat qilish kerakligi belgilanadi.

Moliyaviy menejment, jamiyatning moliyaviy natijalariga ko'ra yo'nalishlar va strategiyalar belgilaydi. Bu jarayonda, moliyaviy menejerlar savdo siyosatlarini, biznes strategiyani, moliyaviy resurslar taqchilligi va boshqa muammolarga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarni amalga oshiradilar. Bundan tashqari moliyaviy menejerlar asosiy vaziflari banklardaning hisobotlarini tuzish, moliyaviy ma'lumotlarni to'plash, moliyaviy manbalarning nazoratini amalga oshirish va banklardaning moliyaviy holatini tahlil qilishdan iborat.

Moliyaviy risklarni boshqarish: moliyaviy menejerlar, banklardaning moliyaviy risklarini aniqlash, baholash va boshqarishda muhim ishlar bilan shug'ullanadi. Bu jarayonda, banklardaning xavfsizligi va hujjatlar xavfsizligi, moliyaviy muomala sifati hamda boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarga diqqat beriladi.

Shuningdek, moliyaviy menejment faoliyati tashkilotning uzluksiz rivojlanishini kuzatib boradi va joriy etilayotgan shartnoma, qonunchilik va boshqa moliyaviy talablarga rioya qilishni ta'minlaydi.

Banklarda moliyaviy menejment tizimini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish orqali moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy modellar asosida banklarda moliyaviy menejment tizimini rivojlantirish, ularning moliyaviy natijalarni oshirish va jamiyatlarining rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Bu esa banklarda raqobatga kelishishiga, xalqaro bozorlarda muvaffaqiyat qozonishiga va innovatsiyalarni qabul qilishga imkon beradi. Banklarda moliyaviy menejment tizimini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish, ularning moliyaviy faoliyatini yaxshilash, xalqaro bozorlarda raqobatga kelishish, ishga qabul qiluvchilarni jalb qilish va biznes rejalarini o'zgartirishga imkon beradi. Bu esa ularning moliyaviy natijalarni oshirish, xatoliklarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga imkon beradi.

Xulosa

O'zbekistonda samarali moliyaviy menejment tizimini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish uchun bir qancha muammolar mavjud: Bu muammolar o'z ichiga moliyaviy resurslar qiymatining qimmatligi, banklarda nizom kapitali darajasining pastligi, banklarda investitsion jalb etuvchanligi pastligi, fond bozori va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi va boshqalar kabi faktorlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy menejmentning rivojlanishi haqida fikrlarni tahlil qilinayotganida, moliyaviy menejmentning o'zgarishlar tendensiyalari va holati muhimligi aniqlandi.

Moliyaviy menejment rivojlanishi, moliyaviy resurslar tashkil etish va boshqarish jarayonlarini samaradorligini oshirish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishga imkon beradi. Bu esa moliyaviy tashkilotlarning samaradorligini oshiradi, innovatsiyalarni qabul qilish va zamonaviy iqtisodiyotga mos kelishga imkon beradi.

O'zbekistonda moliyaviy menejmentning rivojlanishi uchun qo'shimcha amaliyotlar va huquqiy-tartibotiy reformalar muhimdir.

Moliyaviy menejmentning rivojlanishi, moliyaviy xizmatlarni yuqori sifatda taqdim etish, moliyaviy hisob-kitob va hisobotlarni yaxshilash, investitsiyalarni jalb etish va xalqaro bozorlarda raqobatga kelishish uchun katta ahamiyatga ega

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.04.2015 yildagi PF-4720-son "Banklarda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"
2. D. Sheremet, A. F. Ionova "Korxona moliyasi. Boshqaruv va tahlil" A-M 2007, p. 36
3. A.N. Gavrilova va hokazo. Moliyaviy menejment. M.: KNORUS, 2015. -111-114 b.
4. E.I. Shoxina. Moliyaviy menejment. M.: KNORUS, 2010. - 27 b.
5. S.V. Galitskaya. Moliyaviy menejment. Moliyaviy tahlil. Korxona moliyasi: M.: Eksmo, 2009.- 19 b.
6. B. Mirzaev, (2020). Banklarda Moliyaviy Menejment va Raqobatbardoshlikni Oshirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti